

O'zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyalari tanlovida ishtirok etib stipendiyat bo'lishni hohlovchi talaba va magistrantlar DIQQATIGA!

Institutimizda iqtidorli va iste'dodli yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida Davlat stipendiyalari tanlovida ishtirok etishni hohlovchi talaba va magistrantlarga quyidagi Nomli stipendiyalarga hujjatlarini topshirish uchun saralash mavsumi boshlanganini ma'lum qiladi.

- **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi;**
- **Islom Karimov Davlat stipendiyasi;**
- **Beruniy Davlat stipendiyasi;**
- **Navoiy Davlat stipendiyasi;**

Hamda institutimizda ta'xis etilgan **"Ilmiy kengash"** stipendiyasi tanloviga ham hujjatlar qabul qilinishini ma'lum qilamiz.

Tanlovda ishtirok etuvchi talaba va magistrantlarning hujjatlari belgilangan muddatlardan kechikmagan holda taqdim etilishini so'raymiz.

Shaxsiy hujjatlar tarkibi quyidagilardan iborat:

- Institut Ilmiy Kengashi yig'ilishi bayonnomasidan nus'ha;
- dekanat va kafedra taqdimnomasi;
- reyting daftarchasi nus'hasi (nus'ha dekanat yoki institut orginal muhri bilan tasdiqlanishi lozim);
- ilmiy ishlari ro'yxati;
- ilmiy (ijodiy) ishlarning annotatsiyasi;
- ilmiy maqolalari nus'halari;
- nomzodning ilmiy izlanishi to'g'risidagi kafedra va ilmiy rahbar xulosasi;
- pasport nus'hasi;
- nomzodning kirish test sinovlarida to'plagan bali;
- nomzodning tarjimai holi;
- nomzodning ma'lumotnomasi;
- nomzodning 2 dona 10x15 sm, 2 dona 3x4 sm o'lchamdagi rangli fotosurati;
- Sertifikat, Diplomal nus'hasi.

Qayd etilgan hujjatlar davlat tilida tayyorlanadi va keltirilgan ketma-ketlikda hujjatlar jildiga tikiladi. Jildning muqovasida Institutning va nomdor stipendiyasining nomi, talabaning ismi-sharifi, fakultet nomi, ta'lim yo'nalishi, shifri, kursi va guruhi ko'rsatiladi.

Tanlovning 1 bosqich sinovlarini o'tkazish muddati va fanlar bo'yicha ma'lumotlar.

- Chet tili fani;

Konsultatsiya kuni, vaqti va joyi - 13.06.2018y., soat 13³⁰-15³⁰, xona B-01.

Imtixon kuni va vaqti va joyi - 14.06.2018y., soat 13³⁰-15³⁰, xona B-01.

- Informatika va axborot texnologiyalari fani;

Konsultatsiya kuni, vaqti va joyi - 15.06.2018y., soat 13³⁰-15³⁰, xona Bk-01.

Imtixon kuni va vaqti va joyi - 18.06.2018y., soat 13³⁰-15³⁰, xona Bk-01.

- O'zbekiston tarixi;

Konsultatsiya kuni, vaqti va joyi - 19.06.2018y., soat 13³⁰-15³⁰, xona B-225.

Imtixon kuni va vaqti va joyi - 20.06.2018y., soat 13³⁰-15³⁰, xona B-225.

Talab etiladigan hujjatlar, tanlov shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni institutimizning Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limidan olishingiz mumkin.

Tanlovda ishtirok etishni hohlovchi talaba va magistrantlarni **13 iyunga qadar** ITIvaIPKT bo'limiga kelib uchrashishlarini so'raymiz.

Hujjatlar to'plangan papkalar **13 iyundan 25 iyungacha** qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefonlar: 237-19-61, S.Isayev, S.Yarova.